

O‘YIN TERAPIYASI-BOLALAR FAOLLIGINI SHAKLLANTIRISHDA MUHIM VOSITA

Qo‘qon universiteti MT 1- 22 guruh talabasi Madaliyeva Xurshida

Ilmiy rahbar: Ta’lim kafedrası o‘qituvchisi Eraliyeva Z.R.

“Ta’lim” kafedrası o‘qituvchisi

zamirahoneraliyeva22@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yin terapiyasini qo‘llash masalalari dolzarb masalalardan biri ekanligi, uning maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolaning rivojlanishi va tarbiyasida alohida ahamiyatga ega ekanligi hamda o‘yin terapiyasining afzalliklari, imkoniyatlari va qo‘llanilganda samaralilik darajalari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *o‘yin terapiyasi, bolaning shaxsiyati, munosabatlar, qiziqarli tarzda, o‘yin jarajonida.*

Аннотация. В статье рассматривается использование игровой терапии в дошкольном образовании, являющейся одним из наиболее актуальных вопросов и играет особую роль в развитии и воспитании ребенка в дошкольном образовании.

Ключевые слова: *игротерапия, личность ребенка, как личность, отношения, интересно, в процессе игры.*

Abstract. The article, the use of play therapy in preschool education is one of the most pressing issues and plays a special role in the development and upbringing of the child in preschool education.

Keywords: *game, game therapy, game therapy, the child’s personality, as a person, the relationship, in an interesting way, in the process of play.*

Ma’lumki 2016-yil 29-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-sonli qarorining e’lon qilinishi sohani tubdan isloh qilish, maktabgacha ta’lim muassasalari ishini har tomonlama takomillashtirish, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berish, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish bo‘yicha ham keng ishlar olib borilmoqda. Muhtaram yurtboshimiz “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol

topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz,- deb ta'kidlab ta'lim sohasida tub islohotlarni tizimli ravishda amalga oshirib kelmoqda.[1] Buning uchun esa maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini yetuk va sog'lom shaxs etib tarbiyalash lozim. Bugungi kunda bolaning shaxs sifatida rivojlanishida o'yin terapiyasi katta ahamiyatga ega bo'lib, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida psixologik xizmat vositasi sanaladi. O'yin terapiyasi yordamida bolalar intellektual ko'nikmalarini shakllantiradilar, jismoniy jihatdan rivojlanadilar, hamda muloqot qilishni, atrof-muhitni o'rganadilar. Bu maktabgacha yoshdagi bolaning shaxsiyatini, uning axloqiy-irodaviy fazilatlarini shakllantirishning eng samarali vositasi bo'lib, o'yinda amalga oshiriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishi ko'plab tadqiqotlar asosida o'rganilgan. Tadqiqotchilar maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishiga ko'ra, bu davrni uch bosqichga ajratish mumkinligini ta'kidlashadi:birinchi davr-bu 3-4 yosh oralig'ida bo'lib, bola emotsional jihatdan o'z-o'zini boshqarishning mustahkamlanishi bilan bog'liqdir; ikkinchi davr-bu 4-5 yoshni tashkil qilib axloqiy o'z-o'zini boshqarish;uchinchi davr esa bu 6-7 yoshni tashkil etib, shaxsiy ishchanlik va tadbirkorlik xususiyatining shakllanishi bilan xarakterlanadi. Maktabgacha davrda axloqiy tushunchalar borgan sari qat'iylasha boradi. Axloqiy tushunchalar manbai sifatida, ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan kattalar, shuningdek, tengdoshlari ham bo'lishi mumkin. Axloqiy tajribalar asosan muloqot, kuzatish, taqlid qilish jarayonida, shuningdek, kattalarning ayniqsa, onalarning maqtovi va tanqidlari ta'sirida o'tadi va mustahkamlanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqotning yangi motivlari yuzaga keladi. Bu shaxsiy va ishbilarmonlik motivlaridir. Shaxsiy muloqot motivlari-bu bolani tashvishga solayotgan ichki muammolari bilan bog'liq motivlaridir. Bu motivlarga asta-sekinlik bilan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash bilan bog'liq bo'lgan o'qish motivlari qo'shiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi tarbiyachi bolalarning psixik rivojlanish qonuniyatlarini yaxshi bilishi bilan bir qatordapsixodiagnostik uslublarini o'tkazishni ham bilishi zarur. Tarbiyachining vazifasi bu-omillarni to'g'ri aniqlash, keyinchalik bola bilan individual ish olib borib, ko'rsatilgan xususiyatlarni yo'qotishdan iborat. Maktabgacha yosh davri bolalari uchun kattalar beradigan baho juda muhim. Bolalar birinchi navbatda ma'naviy axloq me'yor va qoidalarini, o'z majburiyatlariga munosabat, kun tartibiga rioya etish, hayvon va narsalar bilan muomala qilish me'yorini egallaydilar. Bunday me'yorlarni egallash bu yoshdagi bolalar uchun qiyin hisoblanib, ularni yaxshi o'zlashtirishi uchun syujetli-rolli o'yinlar yordam berishi mumkin. Maktabgacha yoshining oxirlariga kelib, ko'pchilik bolalarda aniq bir axloqiy qarashlar tarkib topadi, shuningdek, odamlarga munosabat bilan bog'liq

bo‘lgan shaxsiy sifatlar jumladan: kishilarga nisbatan diqqat-e’tiborli, mehribon bo‘lish xususiyati ham shakllanadi. Katta yoshdagi bolalar ko‘p hollarda o‘z xatti-harakatlari sabablarini tushuntirib bera oladilar. O‘z-o‘zini anglash layoqati katta bog‘cha yoshidan rivojlanib, avval u qanday bo‘lganini va kelajakda qanday bo‘lishini fikrlab ko‘rishga harakat qiladi. Bu esa bolalar beradigan “Men kichkina paytimda qanday bo‘lgan edim?”, “Men katta bo‘lganimda qanday bo‘laman?” singari savollarida ko‘rinadi. Kichik va o‘rta maktabgacha yoshida bola xarakterining shakllanishi davom etadi. U asosan, bolalarning kattalar xarakterini kuzatishlari asosida tarkib topadi. Maktabgacha yosh bolalarning xayoli, asosan, ularning turli-tuman o‘yin faoliyatlarida o‘sadi. Biroq, shu narsa diqqatga sazovorki, agar maktabgacha yoshdagi bolalarda xayol qilish qobiliyati bo‘lmaganda edi, ularning xayoli ham xilma-xil bo‘lmas edi. Maktabgacha yoshdagi bolalar xayolining o‘sishiga faol ta’sir qiluvchi omillardan yana biri-ertaklardir. Bolalar hayvonlar haqidagi turli ertaklarni eshitganlarida shu ertaklardagi obrazlarga nisbatan ma’lum munosabatlari yuzaga keladi. O‘yin terapiyasi -bu terapevtik usul bo‘lib, unda o‘yin asosiy terapevtik omil hisoblanadi. O‘yin bolaning tabiiy muloqot vositasi bo‘lganligi sababli, o‘yin terapiyasi ideal uslubdir unda bolalarga o‘z his-tuyg‘ularini ifoda etish va hissiy muammolarini hal qilish imkonini beradi. O‘yin terapiyasi bolalarning psixikasi va tanasining boshqa jihatlari, birinchi navbatda, uning hissiyligi, motorli ko‘nikmalari va shaxslararo muloqot qobiliyatlari rivojlanishiga yordam beradi.

O‘yin terapiyasi bolaning ruhiy salomatligiga e’tibor qaratgan holda, uning uzoq muddatli rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Bolalar uchun o‘yin har qanday vaziyatda o‘ynaladi va o‘yinlar juda xilma-xildir. Bu psixoanalitik yo‘naltirilgan, nodirektiv va direktiv, munosabatlarni o‘rnatish, xulq-atvor, javob terapiyasi, individual yoki guruh va boshqa o‘yinlar sifatida o‘tkaziladi. Shuning uchun, bolaning psixologik jarayonlarini tartibga soluvchi bolaning mos yozuvlar tizimi va hozirgi vaqtda boshdan kechirilayotgan tashqi dunyoning ta’sir etuvchi tajribalari o‘rtasida alohida munosabat mavjud. Bola o‘zi o‘ynagan har bir o‘yinda bu munosabatni o‘zi o‘rnatadi va har safar bu munosabatlar dolzarb bo‘lsa, u bola uchun ma’lum shaxsiy tajribani yaratadi. Ammo o‘yindan tashqarida sodir bo‘lgan tajribalar ham, agar bolaga ta’sir qilsa, bola buni o‘z o‘yinlarida aks ettiradi. O‘yin terapiyasining tarbiyaviy ahamiyati ko‘p jihatdan tarbiyachining kasbiy mahoratiga, uning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda bolaning psixologiyasini bilishiga, bolalar o‘rtasidagi munosabatlarga uslubiy rahbarlik qilishiga, aniq tashkil etilishiga bog‘liq. Buning uchun o‘z navbatida tarbiyachi qum o‘yinlari terapiyasi, ertak o‘yin terapiyasi, qo‘g‘irchoq terapiyasi kabi artterapiyaning muhim yo‘nalishlari haqida bilimlarga ega bo‘lishi lozim. O‘yin terapiyasida o‘yin faoliyati ko‘ngilochar hodisa sifatida emas, balki diagnostika, tuzatish, o‘qitish va yordamchi davolash vositasi ekanligini tushunish lozim. Zero,

o‘yin mavzusi o‘yin terapevti uchun muhim va bola (mijoz) uchun qiziqarli bo‘lishi lozim. O‘yin terapiyasida ishtirokchilarning mustaqil tashabbusini faollashtirish, direktiv va nodirektiv o‘yin komponentlari bir-birini to‘ldirishi, hamda o‘yin psixologik va psixoterapevtik ta’sir personajlar xarakteri orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Shu o‘rinda, birinchi marta aynan Zigmund Freyd psixoanalizda o‘yin terapiyasidan foydalanishni boshlaganligi hamda bolalar o‘yinlarini tasvirlab, bola o‘zining o‘tmishdagi passiv tajribalarini faol o‘yinga aylantiradi, deb ta’kidlaganligini aytib o‘tish joiz. M. Klein esa psixologiya tarixidagi birinchi marta bolalarni psixoanaliz yo‘nalishida psixoterapiya qilishda o‘yinchoqlardan foydalanishni tajribadan o‘tkazgan. M. Klein bolaning o‘yinini ongsizlikka kirishni ochib, erkin uyushmaga o‘xshash deb tushuntirgan. Demak, o‘yin - bu bolalar birinchi navbatda tengdoshlari bilan muloqot qiladigan mustaqil faoliyat turi ekanligini ta’kidlash o‘rinlidir. Ularni umumiy maqsad, unga erishish yo‘lidagi birgalikdagi sa’y-harakatlar, umumiy manfaatlar va tajribalar birlashtiradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar uchun o‘yin yetakchi o‘rin tutadi. Bola o‘yinda ko‘p vaqt sarflaydi. A.S. Makarenko bolalar o‘yinlarining rolini “O‘yin bola hayotida muhim ahamiyatga ega, u kattalarning faoliyati, mehnati, xizmati bilan bir xil ma’noga ega”, - deb ta’kidlagan[2]. Tabiiyki, bolaning o‘yin tajribasi hozirgi vaqtda bola uchun muhim va qimmatli bo‘lgan hozirgi psixologik hodisani ifodalasada, bolaning tajribasi biroz boshqacha va biroz murakkabroq. Zero, o‘yinlarning mazmuni xilma-xil: ular oila va maktabgacha ta’lim tashkilotlar hayoti, turli kasb egalarining mehnati, ijtimoiy tadbirlarni aks ettirishi mumkin. O‘yinda bolaning xatti harakatlarini kuzatib, oiladagi kattalarning munosabatlari, ularning bolalarga munosabati haqida hukm chiqarish mumkin. O‘yin terapiyasida shakllangan axloqiy fazilatlar bolaning hayotdagi xulq-atvoriga ta’sir qiladi, shu bilan birga, bolalarning bir-biri bilan va kattalar bilan kundalik muloqoti jarayonida shakllangan ko‘nikmalar o‘yinda yanada rivojlantiriladi. O‘yin terapiyasi nafaqat har qanday psixologik muammolari bo‘lgan bolalar bilan, balki sog‘lom bolalar bilan ham o‘tkazilishi mumkin. Bunday terapiya qo‘rquvni yo‘q qilish, og‘ir psixo-emotsional muammolarni masalan, ota-onalarning ajralishi, kichik bolaning paydo bo‘lishi kabi holatlarni bartaraf etishga, psixologik potentsialni ochib berishga, muayyan ko‘nikmalarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Demak, o‘yin - doimiy harakat va g‘alaba! Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar o‘yin davomida o‘zlarini qulay sezishadi, o‘ynash davomida to‘liq erkinlik, xavfsizlik va psixologik ozodlikni his qilishadi. Bu esa o‘z navbatida o‘yin terapiyasi vazifasini bajaradi. Xullas, maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati o‘yin bo‘lib, uning jarayonida bolaning ma’naviy va jismoniy kuchi,

epchilligi, bilish jarayonlari sifatida diqqati, xotirasi, tasavvuri, xulq-atvor jihatidan intizomi, dunyoqarashi kabilar rivojlanadi. Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, maktabgacha yosh- bola shaxsining rivojlanishi va uning psixodiagnostikasi uchun juda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan davr hisoblanadi. Shu sababli bu davrga alohida e‘tibor bilan qarash lozim. Har bir ota-ona, tarbiyachi va o‘quvchilar bola shaxsining xususiyatlarini bilish va uning ko‘ngliga yo‘l topa olishi lozim. Bu jarayonda o‘yin terapiyasini qo‘llash samarali yo‘l sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik o‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”\O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq Toshkent - «O‘zbekiston» NMIU – 2016 14-bet.
2. Gubanova N.F. Bolalar bog‘chasida o‘yin faoliyati. 2-7 yoshli bolalar bilan ishlash uchun. - M.: Mozaika - Sintez. 2015 y.,
3. Vigotskiy L.S. Igra i yee rol v psixicheskoy razviti rebenka // Psixologiya razvitiya. – SPb.: Piter, 2001
4. Proxorova, G. A. Bolalar bog‘chasida ota-onalar bilan o‘zaro munosabatlar: amaliy qo‘llanma / G. A. Proxorova.– M.: Iris - press, 2009.- (Maktabgacha ta'lim va rivojlanish).
5. Eraliyeva Zamira Rasuljonovna, & Djo‘rayeva Dildoraxon Rahmonaliyevna. (2023). BOLALAR TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA AYRIM DIDAKTIK O‘YINLARNING AHAMIYATI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9(9), 184–186. <https://doi.org/10.54613/ku.v9i9.866>
6. Ne‘matullayeva S.X. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yin terapiyasini qo‘llashda innovatsion usullar. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti ilmiy jurnali, 2022.
7. Yuldasheva Dilafruz, Jabborova Marifatxon, Eraliyeva Zamira Rasuljonovna, & Maziyyayeva Muqaddasxon (2022). MAKTABGACHA TA’LIMGA YANGICHA YONDASHUV. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2 (Special Issue 3), 121-125.
8. Eraliyeva, Z. (2023). MTT NING MAKTABGA TAYYORLOV GURUHLARIDA BOLALARNI MANTIQIY FIKRLASH VA BAHS MUNOZARALI VAZIYATLARDA YECHIM TOPISHGA VA BADIY NUTQQA O‘RGATISH. Talqin Va Tadqiqotlar, 1(18). извлечено от <https://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/19>

YOSHLAR ORASIDA O‘Z JONIGA QASD HOLATLARINI OLDINI OLISH

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti

Tarix fakulteti g'oya va Huquq ta'limi yo'nalishi 101-guruh talabasi

Ochilova Feruza O'roqboy qizi

Annotatsiya. Mazkur maqola yoshlar orasida o‘z joniga qasd qilish hodisalari va bu holatlarning oldini olish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarga bag‘ishlanadi. Yoshlarning psixologik salomatligiga ta’sir etuvchi omillar, ijtimoiy va iqtisodiy bosimlar, oilaviy muhit hamda texnologik rivojlanishning o‘ziga xos ta’siri atroflicha tahlil qilinadi. Shu bilan birga, o‘z joniga qasd qilish xavfini kamaytirish bo‘yicha ilg‘or yondashuvlar, shu jumladan psixologik maslahat va ruhiy qo‘llab-quvvatlash muhim ekanligi ko‘rsatilgan. Maqola yakunida bu muammoning hal etilishiga yordam beradigan takliflar va tavsiyalar keltirilgan.

Annotation. This article is dedicated to the study of suicide cases among young people and the prevention methods associated with these incidents. It provides a comprehensive analysis of factors influencing the mental health of youth, such as social and economic pressures, family environment, and the unique impact of technological development. Additionally, the article highlights advanced approaches to reducing the risk of suicide, including the importance of psychological counseling and emotional support. The conclusion of the article offers recommendations and suggestions that can help address this critical issue.

Kalit so‘zlar: o‘z joniga qasd, yoshlar, psixologik yordam, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, stress, depressiya, oldini olish, oilaviy muhit, ijtimoiy izolyatsiya.

Keywords. suicide, youth, psychological counseling, social support, stress, depression, prevention, family environment, social isolation.

Kirish

Zamonaviy dunyoda o‘z joniga qasd holatlari ijtimoiy hayotning eng nozik va murakkab masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, bu muammo yoshlar orasida tobora keng tarqalmoqda. Yoshlar hayotining o‘ziga xos jihatlari, ularga tushayotgan ijtimoiy va iqtisodiy bosimlar, shuningdek, psixologik omillar yoshlar orasida o‘z joniga qasd qilish xavfini oshiradi. O‘z joniga qasd qilishning ko‘p sabablari stress, depressiya, kutilmagan ijtimoiy o‘zgarishlar, shaxsiy